

O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMI RIVOJLANISHI VA UNING AHAMIYATI

Toshboyev Salim Alisherovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Gid hamrohligi va tarjima faoliyati magistranti

salim9218@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘zbekistonda ziyorat turizmi rivojlanishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar hamda bu sohasi istiqboliga doir qabul qilingan qonuniy-me’yoriy hujjatlar haqida yoritilgan, shuningdek, ziyorat turizmining mamlakat rivojidadagi o‘rni va ahamiyati batafsil tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: turizm, ziyorat turizmi, harakatlar strategiyasi, “Ziyarah tourism” brendi, ziyoratchi, diniy turizm, “Usmon Qur’oni”, ziyoratgohlar.

Abstract

This dissertation considers the history and future development of Ziyarat (pilgrimage) tourism in Uzbekistan. It researches the places of pilgrimage being developed for the tourist market. The work analyzes concepts of "tourism", "pilgrimage tourism", "religious tourism", "tourist ", " pilgrim " and "pilgrimage". A study has been made of the development of pilgrimage tourism in Central Asia during the time of the Russian empire, the Soviet Union, and in the period of independence. Comparative analysis has been made of what proposals are available on the market with regard to pilgrimage tours. The aim of this dissertation is to be able to form the basis of tours for ziyarah tourism.

Keywords: tourism, religious tourism, pilgrimage tourism, Islam, tour product, ziarah tourism.

Hozirgi vaqtda butun dunyoda, shuningdek O‘zbekistonda ham iqtisodiyotning noishlabchiqarish, xususan turizm sohasiga e‘tibor tobora kuchayib bormoqda. Insonlar bo‘sh vaqtlarini samarali o‘tkazib, dam olishga, sog‘ligini tiklashga, dunyoni, xalqlarning urf-odatlarini, qadriyatlarini bilishga intilmoqdalar. Bunday xizmatlarni turizm sohasi ko‘rsatadi. Insoniyat har doim o‘zining harakat doirasini o‘zgartirib, yangi yerlarni kashf qilishga intilgan. XX asrga kelib bunday intilishlar kuchaydi va turizm industriyasining rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Ayrim mamlakatlarda turizm sohasi juda ham barqaror rivojlanib bormoqda va ularning har yillik o‘sish sur‘ati 8%-10% gacha boradi. Bu esa turizm sohasining qanchalik darajada mamlakatlar iqtisodiyoti tizimida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Shunisi qiziqki, turizm rivojlanishi natijasida transport, bozor infratuzilmasi, savdo-sotiq, oziq-ovqat tarmoqlari, qurilish, hunarmandchilik va boshqa xizmat ko‘rsatish tarmoqlari ham rivojlanib boradi.

Shunday ekan, avvalo “turizm” atamasi nima ekanligini aniqlashtirib olish lozim.. Ushbu kontseptsiya ancha vaqt davomida o‘rganilgan va soha mutaxassislari tomonidan bir qancha ta‘riflar berilgan. “Turizm – bu odamlarning odatdagi ish va yashash joylaridan tashqaridagi yo‘nalishlarga vaqtinchalik ko‘chishi, bu yo‘nalishlarda bo‘lishlari davomida amalga oshiradigan faoliyati hamda ularning ehtiyojlarini qondirish uchun yaratilgan infratuzilmadir”³. Shuningdek, ilmiy jamoatchilikning ko‘p sonli mutaxassislari Aleksandrova A.Yu. tomonidan berilgan ta‘rifga murojaat qilishadi: “Turizm – bu odamlarning doimiy yashash va ishlash joyidan boshqa joylarda bo‘lishi va harakatlanishi paytida yuzaga keladigan munosabatlar va hodisalar yig‘indisidir”⁴.

Sayohat maqsadiga qarab turizmni turlarga ajratish odatiy holdir: madaniy, etnik, ishbilarmonlik turizmi, tabiiy-ekologik, tibbiy-rekreatsion, diniy va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish uchun qulay makonlardan biri bo‘lib, bu zamin islom dini ulamolarining orom topgan maskanlari hisoblanadi.

³ Mathieson A., Wall G. Tourism: Economic, Physical and Social Impacts. London: Longman Group Ltd., 1982 – p.208.

⁴ Александрова А. Ю., Международный туризм: учебник для студентов высших учебных заведений, обучающихся по специальности "География" / А. Ю. Александрова. - 2-е изд., перераб. и доп. - Москва: Кнорус, 2010. - 459 с.

Ularning joylardagi obod qilinayotgan maqbaralari, ziyoratgohlari hozirgi davr avlodlari va ziyoratchilari uchun ham ma'naviy ozuqa, ham tarbiya beradigan muqaddas dargoh sifatida yanada qadrlanmoqda.

Mamlakatimizda istiqbolning dastlabki kunlaridan boshlangan turizm faoliyati davlat siyosati darajasida mustahkamlandi. Bu sohani rivojlantirish uchun barcha zarur tashkiliy-huquqiy me'yorlar belgilandi, turizm sohasini rivojlantirishga, ham turizm sohasi bilan shug'ullanuvchi xususiy sektor ishiga qaratilgan qonun va me'yoriy hujjatlarni joriy etish bo'yicha maqsadli ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda so'nggi yillar mobaynida turizm sohasiga bo'lgan e'tibor va nazorat kuchaygani, turizm sohasining yangi istiqbollari keng ochilib, turli yo'nalishlarda namunaviy loyihalar amalga oshirilayotganligi sababli yurtimizga kelib ketayotgan sayyohlarning soni kundan-kunga ortib borayotganligini guvohi bo'lmoqdamiz.

O'tkazilgan xalqaro tadqiqotlar natijasiga ko'ra, ziyorat turizmi bo'yicha sayohat qiluvchilar soni yildan-yilga o'sib borgan. Bunga misol 2017 yili musulmon sayyohlarning soni 131 million kishini tashkil etgan bo'lib, undan keladigan jami daromad 142 milliard dollarga yetgan. Bu shuni ko'rsatadiki, mazkur turdagi turizm sohasi eng tez rivojlanadigan xalqaro turizm industriyasining segmenti hisoblanadi⁵.

Mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlar natijasi ziyorat turizmiga bo'lgan ehtiyoj so'nggi yillarda yuqori darajaga chiqqanligini ko'rsatadi. Shu tufayli ozirgi yillarda ziyorat turizmini rivojlantirishga e'tibor kuchaydi. O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida “Ziyarah tourism” brendi asosida raqobatbardosh milliy turistik mahsulotni yaratish va jahon turizm xizmatlari bozoriga olib chiqishda integratsiyalashgan marketing kontsepsiyasining ishlab chiqilishi sohaning rivojlanishiga xizmat qiladi⁶. Bilamizki, qadimda turli mintaqalarning o'zaro iqtisodiy-madaniy, diniy, ijtimoiy munosabatlarida ziyorat turizmining o'rni o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyatiga ega bo'lgan. Bu o'z navbatida hududlar o'rtasida

⁵ Rozikova M., Umarov T. O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari. Buyuk Ipak yo'li chorrahasida ziyorat turizmining Renessansi. Ilmiy maqolalar to'plami – Samarqand.: SamDU nashriyoti, 2019.

⁶ Xudoyorov A.A. O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida ziyorat turizmining rivojlanish xususiyatlari. Journal of innovations in economy. 2021. Vol. 4, Issue 9. – B. 46.

iqtisodiy munosabatlarni hamda davlatlar o‘rtasida axborot va ma’lumotlarning almashuvini ta’minlashga xizmat qilgan. Shu bilan bir qatorda madaniy qadriyatlarning rivojlanishida hamda xalqlar, millatlar, dinlar o‘rtasida o‘zaro do‘stlik va bag‘rikenglik rishtalarini mustahkamlashda asosiy vosita vazifasini bajargan. Qit’alar va davlatlarning integratsiyalashuvi natijasida sivilizatsiyalararo muloqot uchun qulay shart-sharoitlar vujudga kelgan va rivojlanib borgan.

2017-2021 yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida “Ziyorat va an’anaviy turizmni rivojlantirish mumkin bo‘lgan yo‘nalishlardagi madaniy meros va arxitektura obyektlari sonini 800 taga yetkazish hamda bu orqali ularning holatini yaxshilash”⁷ vazifasi qo‘yilgan. Ushbu strategik vazifani bajarishda ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda mavjud bo‘lgan muqaddas qadamjolarining ziyoratga mosligi hamda ziyorat qilishga yaroqliligini oshirishga qaratilgan aniq va samarali chora-tadbirlarini ishlab chiqilishini talab etadi.

Har bir makrohudud eng avvalo ziyoratning jahoniy markazlari bilan mashhur. Ular e’tiqodchilarning xalqaro oqimini qabul qiladilar va ko‘pincha diniy ixtisoslashtirishning ma’muriy, sanoat, madaniy va turistik markazlari funksiyalari bilan qo‘shilib ketadilar. Bundan tashqari, makrohududlarda milliy va mahalliy ahamiyatga ega diniy sig‘inish obyektlari mavjud.

Asosiy ziyorat turizmi uch shaklga ega: ziyorat, diniy mavzular bo‘yicha ekskursiyalar, ziyoratchilar va sayyohlar birlashadigan ixtisoslashtirilgan ekskursiyalar. Musulmonlar uchun ziyoratga borish – islomiy yodgorliklarni ziyorat qilish, muqaddas qadamjolarini borib ko‘rish va rivojlantirish uchun xayr-ehson qilish maqsadida diniy hududlarni ziyorat qiladilar. Mamlakatimizda bu ziyorat deb nomlandi va bular dunyo musulmonlarining yurtimizga intilishini kuchaytirishi shubhasiz. Zotan, ziyorat faqat tomosha emas: u, eng avvalo, buyuklar ruhini his

⁷ O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2020 yil 2 martdagi PF-5953-sonli farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.03.2020.

etish, ma’naviy-ruhiy muhitdan quvvat olish, ulug‘lar maqomi va tutumini, tiriklik va hayot haqida eng azaliy haqiqatni anglash, qalbni shu haqiqat bilan boyitishdir⁸.

Shuni qayd etish joizki, musulmon olamida ziyorat qilish makonlari ham anchagina. Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa O‘zbekiston Respublikasida ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari beqiyos ko‘p. Masalan, ba’zilar Toshkent shahrida saqlanayotgan «Usmon Qur’oni»ni ko‘rish uchun tashrif buyurishsa (bu kitob O‘zbekiston musulmonlari diniy idorasi kutubxonasidagi maxsus vakuumli seyfda saqlanishi tufayli va uning nechog‘li tarixiy ahamiyati katta ekanligini inobatga olib hammaga ham ko‘rsatish imkoniyati yo‘q. Asosan, musulmon mamlakatlaridan kelgan davlat arboblari va mutaxassislar uchungina namoyish etiladi), boshqalar imom Buxoriy, imom Termiziy, payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning amakivachchalari Qusam ibn Abbosning qabrini ziyorat qilish uchun yurtimizga kelishadi⁹. O‘z fuqarolarimiz ham bunday joylarga ziyoratlarini uyushtiradilar. Shuningdek, Bahovuddin Naqshband, Abu Mansur Moturudiy, Zangi ota, Anbar otin, Go‘ri Amir kabi yuzlab ziyoratgohlar ham borki, bular respublikamizda diniy turizmni yanada rivojlantirish uchun asosiy resurslar vazifasini o‘taydilar. Shu o‘rinda bir fikrni aytib o‘tish joizki, mamlakatimizdan dunyoni lol qoldirgan sarkardalar, olim-u allomalar, fozil-u fuzalolar yetishib chiqishgan. Bularning o‘zlaridan qoldirib ketgan madaniy meroslari tufayli davlatimiz dunyo tarixida o‘chmas iz qoldirdi. Ilk uyg‘onish va sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrlarida shunday ilmiy, madaniy va bunyodkorlik ishlari qilindiki, insoniyat yana necha yillar bular bilan faxrlanadi. Shular tufayli mana oradan necha yuz, hatto ming yillar o‘tsa hamki, davlatimiz obro‘si ortib, iqtisodiyotimiz rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilmoqda (hatto, bulardan xorijiy kompaniyalar ham manfaatdorlikda). Negaki, respublikamizda mavjud arxeologik va me‘moriy yodgorliklarning xalqaro turizmga o‘z o‘rni va mavqei ulkan. Shuningdek,

⁸ Bakayev Z. Mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirishda Imom al-Buxoriy ziyoratgoh majmuasining o‘rni. Maqola.

⁹ Mirzayev M., Aliyeva M. Turizm asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011. – B. 101.

yurtimizda mavjud imom Buxoriy, imom Termiziy, Bahovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviy qadamjolarini ham ziyoratgohlar deb bilamiz.

Mustaqillik yillarida juda ko‘pgina aziz, avliyolarning dafn etilgan joylari va qabrlari qaytadan ta‘mirlanib, asl holatiga keltirildi. Ushbu qadamjolar xushmanzara, obod, ziyoratgoh maskanlarga aylantirildi. Ular qatoriga Bahoviddin Naqshbandiy, G‘ijduvoniy, Imom al-Buhariy, Mahtumi A‘zam, Shohizinda, Motrudiy, Hakim at-Termiziy, Zangiota kabi aziz avliyolar va imomlar maqbaralari musulmon ahlining beqiyos, go‘zal ziyorat qiladigan va ma‘naviy ruhlanadigan joylariga aylantirildi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, diniy turizm hamma vaqt sayohatning eng faol turlaridan biri bo‘lib kelgan. Insoniyat borki, u e‘tiqod qiladi, sig‘inadi, ruhan va ma‘naviy jihatdan poklanishga harakat qiladi. Shuning uchun u diniy ziyoratni xohlaydi.

Buning uchun muqaddas ziyoratgoh bo‘lishi shart. Vaholanki, mamlakatimiz diniy ziyoratgohlarga boy mintaqa hisoblanib, kelajakda diniy turizmni rivojlantirishga yanada e‘tiborni kuchaytirish ham moddiy, ham ma‘naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda xalqaro turizmning eng muhim tarmoqlaridan biri diniy ya‘ni ziyoratchilik turizmi bo‘lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2020 yil 2 martdagi PF-5953-sonli farmoni. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 03.03.2020.
2. Rozikova M., Umarov T. O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari. Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida ziyorat turizmning Renessansi. Ilmiy maqolalar to‘plami – Samarqand.: SamDU nashriyoti, 2019.
3. Xudoyorov A.A. O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida ziyorat turizmining rivojlanish xususiyatlari. Journal of innovations in economy. 2021. Vol. 4, Issue 9. – B. 46.

4. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2020 yil 2 martdagi PF-5953-sonli farmoni. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 03.03.2020.
5. Bakayev Z. Mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirishda Imom al-Buxoriy ziyoratgoh majmuasining o‘rni. Maqola.
6. Mirzayev M., Aliyeva M. Turizm asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011. – B. 101.
7. Mathieson A., Wall G. Tourism: Economic, Physical and Social Impacts. London: Longman Group Ltd., 1982 – p.208.
8. Александрова А. Ю., Международный туризм: учебник для студентов высших учебных заведений, обучающихся по специальности “География” / А. Ю. Александрова. - 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Кнорус, 2010. – 459 с.